преподаватель сектора международного частного права
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Активное вовлечение населения в инвестиционные отношения имеет для каждого государства не только экономическое, но и политическое значение. В данной статье системно проанализированы правовые средства и методы активного вовлечения местных инвесторов в экономические отношения в качестве субъектов инвестиционной деятельности. В рамках исследования изучены национальные нормативно-правовые акты Республики Узбекистан, регулирующие данную сферу, раскрыты различия между прямыми и портфельными инвестициями, перспективы развития фондового рынка, а также существующие проблемы в деятельности акционерных обществ. Автором всесторонне рассмотрены вопросы защиты прав миноритарных акционеров, совершенствования корпоративного управления, а также использования возможностей исламского финансирования в целях диверсификации инвестиционной среды. На основе сравнительно-правового анализа опыта США, Беларуси и Казахстана разработаны конкретные правовые механизмы и практические рекомендации, направленные на активную интеграцию местных инвесторов в инвестиционные процессы.

Ключевые слова: национальный инвестор, институциональный инвестор, квалифицированный инвестор, миноритарные акционеры, корпоративное управление, исламское финансирование, государственно-частное партнёрство, коллективное инвестирование

INCREASING THE ROLE OF LOCAL INVESTORS IN THE NATIONAL ECONOMY: LEGAL INSTRUMENTS AND METHODS

Dilboboev Nozimbek Shavkat ugli,

Lecturer of the Department of Private International Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. Active involvement of the population in investment relations is important for each country not only economically, but also politically. This article systematically analyzes the legal means and methods of actively involving local investors in economic relations as subjects of investment activity. Within the framework of the study, the relevant national legislative documents of the Republic of Uzbekistan were studied, the differences between direct and portfolio investments, the prospects for the development of the stock market, and existing problems in the activities of joint-stock companies were revealed. The author comprehensively considered the issues of protecting the rights of minority shareholders, improving corporate governance, as well as using the opportunities of Islamic finance in diversifying the investment environment. Based on comparative analyses conducted on the experience of the USA, Belarus, and Kazakhstan, specific legal mechanisms and practical proposals and recommendations for the active integration of local investors into investment processes were put forward.

Keywords: national investor, institutional investor, qualified investor, minority shareholders, corporate governance, Islamic finance, public-private partnership, collective investment

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli Farmonida aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish belgilangan edi (President of Uzbekistan, 2026). Chunki faqat ichki manba har qanday davlat uchun eng ishonchli va xavfsiz moliyaviy resurs sifatida xizmat qilishi mumkin. Buning isboti shuki, tashqi iqtisodiy va moliyaviy manbalar ma'lum muddat davlatda saqlanadi, keyin esa foyda bilan chiqib ketishni maqsad qiladi, lekin ichki manbalar ham, ulardan olingan daromad ham mamlakatning o'zida qoladi. Shuning uchun ham aholini investitsiyaviy munosabatlarga faol jalb etish har bir mamlakat uchun nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan ham ahamiyatlidir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash borasida mahalliy va xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishni kuchaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan bo'lib, ushbu yo'nalishda milliy investorlarning investitsiya faoliyati subyekti sifatidagi rolini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda (President of Uzbekistan, 2022).

O'zbekiston Respublikasida investitsiyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda "milliy investor" tushunchasi uchramaydi. Iqtisodiy adabiyotlarda milliy investitsiyalar ichki investitsiyalar sifatida keltiriladi. Ammo yaqin orada qonunchilikda ro'y berayotgan o'zgarishlar tizimida "mahalliy investorlar" tushunchasi paydo bo'ldi.

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni 3-moddasiga asosan mahalliy investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo'lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo'lishi mumkinligi belgilandi (Republic of Uzbekistan, 2019a).

Shu o'rinda milliy investor va mahalliy investor tushunchalari o'rtasidagi farqlarga to'xtalib o'tsak. Mahalliy investorlar deyilganda ko'proq hududlardagi tadbirkorlar nazarda tutiladi. Shu narsa aniqki,

mahalliy investor xorijiy investor emas. Mahalliy investor ham milliy investorlarning aynan o'zi hisoblanadi. Mahalliy investor tushunchasi muayyan hudud bilan bog'lanadi. Ammo qonun normasida investorlarni toifaga ajratishda milliylik emas, hududiylik tamoyiliga amal qilingan, chunki chet ellik fuqarolar va yakka tartibdagi tadbirkorlar milliy investor tushunchasiga to'g'ri kelmaydi.

Shuningdek, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida mahalliy investor tushunchasi mavjud, biroq mahalliy investitsiyalar haqidagi norma mavjud emas. Lekin mazkur Qonunning 16- va 31-moddalarida "mahalliy investitsiyalar" atamasi mavjud. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'RQ-604-sonli Qonuni 3-moddasida maxsus iqtisodiy zonalar berilgan ta'rifda ham mahalliy investitsiyalar haqida so'z yuritilgan (Republic of Uzbekistan, 2020). *Milliy xususiy investor* tushunchasi ham mavjud bo'lib, bunda davlatga tegishli bo'lmagan yuridik shaxslar, muayyan davlat fuqarolari tushuniladi.

Qonunchilikdagi yana bir yangiliklardan biri – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrda "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5583-sonli Farmonida "potensial investor" va "malakali investor", shuningdek "investitsiya kompaniyasi", "boshqaruv kompaniyasi" va "venchur fondi" kabi tushunchalar ishlatilishi bo'ldi (President of the Republic of Uzbekistan, 2018). *Potensial investor* – investitsion munosabatlarga faol kirisha oladigan, ammo o'z mablag'larini kimga, qayerga yo'naltirishni bilmaydigan iqtisodiy salohiyatga ega shaxsdir. Shunga o'xshash tushuncha, ya'ni "salohiyatli investor" tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 26-, 28-moddalarida ham qo'llangan bo'lsa-da, qanday investorlar salohiyatli investorlar ekanligiga ta'rif berilmagan. Mazkur tushuncha iqtisodiy adabiyotlarda "preinvestorlar" deb ham yuritiladi. "Preinvestor" tushunchasi katta miqdordagi investitsiya kiritishga tayyorgarlik ko'ruvchi mazmunini ifodalaydi (Nodirkhonov, 2013). Shuningdek, yuqoridagi farmonning 2-bandida "malakali investor", "investitsiya kompaniyasi", "boshqaruv kompaniyasi" va "venchur fondi" kabi tushunchalarga ham huquqiy ta'rif berildi. Ushbu farmon mamlakatimizda investitsiya kompaniyalarini tashkil etish va rag'batlantirish uchun qabul qilindi. Farmonda belgilangan venchur fondlarini yaratish ham sohadagi kamchiliklardan biri bo'lgan jamoaviy investitsiyalar tizimi qoniqarsiz ishlashining oldini olishga turtki bo'ladi, albatta. Chunki bu institut O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonunida mavjud emas (Republic of Uzbekistan, 2015). Shu sababli ham O'zbekistonda fond bozorlari faoliyati rivojlanmay qolmoqda.

Mazkur islohotlar natijasi o'laroq, qonunchiligimizda "institutsional investorlar" tushunchasi paydo bo'ldi. Institutsional investor bu yakka jismoniy shaxs yoki biror-bir tadbirkorlik subyekti emas. Balki investitsion faoliyat bilan professional shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyekti – yuridik shaxsdir. AQSHda institutsional investorlar deganda sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari va turli investitsiya fondlari tushuniladi (Lehmann, 1999). Ular jismoniy va yuridik shaxslar qo'lidagi bo'sh mablag'larni jamlab, turli loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etadi.

Belarus Respublikasida mahalliy investorlarni anglatish uchun ham "национальный инвестор", ham "отечественный инвестор" tushunchalari ishlatiladi (Myfin.by, n.d). Qozog'istonda 2014-yil 9-apreldagi Prezident farmoni bilan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti huzurida Milliy investorlar Kengashi tashkil qilingan (President of the Republic of Kazakhstan, 2014). Kengashning asosiy vazifasi mamlakatning tadbirkorlik va investitsiya siyosatini ishlab chiqish, tadbirkorlarga ko'mak berish, ushbu sohadagi nizoli masalalarni hal qilishdan iborat.

Investorlarning huquq va majburiyatlarini to'g'riroq tushunish uchun to'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalarning farqini tushunish lozim. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar – xalqaro investitsiya faoliyati kategoriyasi bo'lib, xo'jalik birligi – bir mamlakat rezidenti (to'g'ridan to'g'ri investor) tomonidan boshqa mamlakat rezidenti hisoblangan korxonalar (to'g'ridan to'g'ri investitsiya korxonasi) faoliyatiga barqaror ta'sir ko'rsatishni ifodalaydi (Tortian, 2007). Portfel investitsiya deganda esa aksiyalarni, boshqa qimmatli qog'ozlarni yoki hosilaviy moliya instrumentlarini olish

tushuniladi (Nugent & Pashamova, 1998). Mazkur tushunchalar milliy qonunchilikda ham o'z aksini topgan.

Mamlakat iqtisodiyotida milliy investorlarning faolligi va rolini oshirishda bir qator boshqa vositalar ham mavjud hamda ularning aksariyati amaliyotda ishlamoqda. Bank omonatlari shulardan biridir. Bank omonatlarining yaxshi tarafi shuki, xavf darajasi juda past, bank bankrot bo'lgan taqdirda ham, omonatlarning qaytarilishi davlat tomonidan kafolatlangan. Ammo bu vosita ko'proq yirik miqdordagi investitsiyalar uchun qulay. Kichik hajmdagi investitsiyalar uchun esa foydali emas. Birinchidan, mamlakatimizda inflyatsiya darajasi yuqori. Hattoki bank foizlaridan ham yuqori va bu holat yil oxirida kutilgan natijaga olib kelmaydi. Obligatsiyalarda ham shu vaziyat. Aksiyalar masalasiga o'tadigan bo'lsak, bu juda qulay investitsiyalash vositasi bo'lib, investor ikki tomonlama foyda ko'rishi mumkin. Birinchidan, fond bozorida aksiyalar kotirovkasining narxi oshgan paytda sotib yuborib, foyda olish mumkin. Ikkinchidan, aksiyador biznesga sherik sifatida korxonalar foydasidan dividend oladi. Ammo ushbu investitsiyalash vositasi keng aholi orasida mashhur emas. Fuqarolarimiz bu vositaga ishonmaydi. Buning turli sabablari bor. Birinchidan, mustaqillik dastlabki paytlarida yirik va o'rta korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilib, xususiylashtirilgan. Korxonaning mehnat jamoasiga aksiyalar berilgan. Iqtisodiy qiyinchiliklarda aholi o'z aksiyasini arzon-garovga sotib yuborgan. Ikkinchidan, ko'plab xususiylashtirilgan korxonalar bankrot bo'lib, o'z faoliyatini tugatgan yoki zarar bilan ishlagan. Uchinchidan zamonaviy korporativ boshqaruv bo'lmaganligi uchun korxonaning amaldorlari korxonani talagan va natijada mol-mulklar talon-toroj qilingan. O'z-o'zidan bunday vaziyatda aksiyadorlar dividend ola olmagan. Biroq AQSHda aholi dividendlaridan juda katta miqdorda daromad oladi.

Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagicha fikr bildirdi: "Moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda tashkiliy-huquqiy shakllardan mas'uliyati cheklangan jamiyat juda ko'r ro'yxatdan o'tkaziladi. Aksiyadorlik jamiyatlarining soni esa ko'p emas. Ayrim vazirliklar o'zi nazorat qiladigan sohadagi korxonalarda ta'sischi ekani erkin va sog'lom raqobatga yo'l bermayapti. Bunday tizimni endi o'zgartirmasak, ushbu tarmoqlarda ham va umuman, iqtisodiyotda barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi" (Mirziyoyev, 2018).

Shuningdek, ahamiyati jihatidan muhim bo'lgan masalalardan biri mamlakatimizda islom moliyasiga ruxsat berilmaganligidir. Musulmon tadbirkorlari uchun muhim masala bo'lgan foizsiz kreditlar, vaqtincha sheriklikka asoslangan investitsiyalar (*mushoraka*), ishonch asosida moliyalashtirish (*muzoraba*) va islom bank moliya tizimida qo'llanadigan boshqa operatsiyalar shu paytgacha O'zbekistonda mavjud bo'lmagan. Faqatgina Islom taraqqiyot banki qoshidagi Xususiy tarmoqni rivojlantirish islom korporatsiyasining *murobaha* moliyaviy operatsiyasi mahalliy banklar orqali juda chegaralangan hajmda amalga oshirilgan (Imomnazarov, 2018). Mamlakatimiz aholisining 90 foizini musulmonlar tashkil etadi. Islom moliyasi mamlakat aholisining kam qismini musulmonlar tashkil etadigan, davlat dini islom bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotida ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Ayni vaqtda O'zbekistonda 2020-yil yakuniga qadar "Asia Alliance Bank" tomonidan Islom xususiy sektorni rivojlantirish korporatsiyasi (IXSRK) bilan hamkorlikda islom banki xizmatlarini ko'rsatuvchi "islomiy darcha"ni ishga tushirish belgilangan.

Qolaversa, minoritar aksiyadorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoyalash mexanizmlarini takomillashtirish ham oddiy aholini investitsiya faoliyatiga faol jalb qilishning asosiy masalalaridandir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, minoritar aksiyadorlar huquqlarining buzilishiga bir qator omillar zamin yaratadi. Ularni shartli ravishda uchta guruhga bo'lish mumkin: 1) mulkiy konsentratsiya; 2) sohani tartibga soluvchi qonunchilikning rivojlanmaganligi; 3) fond bozorining yetarli rivojlanmaganligi (Khamraxo'jayev, 2016). Mazkur muammo ko'p jihatdan korporativ boshqaruvga borib taqaladi. Shuning uchun korporativ boshqaruv kodeksini ishlab chiqish ham dolzarb masalalardan biridir. Korporativ boshqaruv kodeksidan ko'zlangan maqsad

faoliyat ochiqqligining xalqaro standartlarini joriy etish, direktorlar korpusi va davlat vakillarining mas'uliyatini oshirish, korxonalarni boshqarishda aksiyadorlar, jumladan, minoritar aksiyadorlarning rolini kuchaytirish, korporativ nizolarni tartibga solishda ko'maklashish, ichki korporativ boshqaruv amaliyotidagi ayrim noaniqliklarni bartaraf etish, korporativ boshqaruv tizimida yuqori samaradorlikka erishishdan iborat (Miraliyev, 2016).

Xulosa

Milliy investorlarni investitsiyaviy jarayonlarga faol jalb etish uchun quyidagi huquqiy mexanizmlarni ishga solish maqsadga muvofiq:

- qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini jadallashtirish;
- milliy investorlarimizga chet el yuridik shaxslariga investitsiya kiritish imkoniyatini berish;
- jamoaviy investitsiyalash tizimini davlat tomonidan rag'batlantirish;
- aksiyadorlik jamiyatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va faoliyatini boshlash jarayonlarini soddalashtirish;
- venchur fondlar faoliyatini rivojlantirish;
- xususiylashtirishning yangi bosqichini boshlash;
- korporativ boshqaruvni keng joriy etish, moliyaviy hisobotlarning to'g'riligi, haqqoniyligiga erishish;
- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish;
- xususiy pensiya fondlari faoliyatini yo'lga qo'yish;
- ayrim investitsion faoliyat sohalarida milliy investorlarning huquqiy maqomini chet ellik investorlar bilan tenglashtirish lozim.

Minoritar aksiyadorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoyalash mexanizmlarini takomillashtirish ko'p jihatdan korporativ boshqaruvga borib taqalgani sabab korporativ boshqaruv kodeksini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 7-dekabrda O'RQ-312-II-sonli "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida ham mahsulot taqsimotiga oid bitimning tarafi sifatida faqat chet ellik investor ishtirok etishi belgilangan (Republic of Uzbekistan, 2001). Ushbu normalar O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni 4-moddasida (Republic of Uzbekistan, 2019a) belgilangan investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi prinsipiga zid hisoblanadi. Shu bilan birga, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar investorga yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish hamda shular bilan bog'liq bo'lgan ishlarni olib borish uchun mutlaq huquqlar berishini hisobga olsak, bunday faoliyatda mahalliy investorlarning ishtiroki umummilliy ahamiyatga egadir.

Yuqorida keltirib o'tilganidek, davlat-xususiy sheriklik faoliyatini amalga oshirish ham juda murakkab mexanizmga asoslangani tufayli amaliyotda ishlashi qiyin hujjat bo'lmoqda. Chunki O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-sonli Qonunida (Republic of Uzbekistan, 2019b) xususiy sherik sifatida chet ellik investorlardan tashqari mahalliy investorlar ham ishtirok etishi belgilangan bo'lsa-da, quyidagi byurokratik to'siqlar ushbu hujjatda hali ham mavjudligi vaziyatni murakkablashtirmoqda:

- xususiy sherik tashkiliy shakliga qo'yilgan talablar;
- davlat-xususiy sheriklik loyihasi konsepsiyasini loyiha miqdoriga ko'ra tasdiqlovchi vertikal organlar tizimi;
- davlat xususiy-sheriklik to'g'risidagi bitimni tuzish huquqi uchun loyiha miqdoriga ko'ra bir yoki ikki bosqichli tender o'tkazish tartibi kabilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "O'zbekistonda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish niyatida bo'lgan investorlar uchun mamlakatimizni jozibali qilish maqsadida soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz kerak. Bizda investitsiya dasturlarini shakllantirishda puxta rejalashtirilgan, uzoq muddatga mo'ljallangan yagona konsepsiya yo'q. Iqtisodiyotni rivojlantirishda aholi qo'lida to'plangan mablag'larni investitsiya

shaklida harakatga keltirish, odamlarda tadbirkorlik hissini kuchaytirish muhim vazifalarimizdan biridir”, – degan edi (prezident.uz, 2017).

Haqiqatan ham investitsiya sohasida, jumladan, milliy investitsiyalar sohasida ko‘plab hal qilinishi lozim muammo va kamchiliklar mavjud. Shuning uchun ham milliy investorlar sinfini yaratishda yuqoridagi mexanizmlarning huquqiy asoslarini yaratish lozim. Shu bilan birga, milliy investorlar rolini investitsiya faoliyatida chet ellik investorlarning salohiyatiga yetkazishda aynan yuqoridagi muammo va kamchiliklarga amaliy yechim topish birinchi darajali vazifadir.

REFERENCES

- Imomnazarov, J. (2018). O‘zbekistonda islom bank-moliya tizimini shakllantirish va rivojlantirish istiqbol va imkoniyatlari. *Market, Money and Credit*, (9), 30–34.
- Lehmann, G.A. (1999). *Country risk and the investment activity of U.S. multinationals in developing countries (IMF Working Paper No. 99/133)*. International Monetary Fund.
- Miraliyev, A. (2016). Korporativ boshqaruv kodeksi: o‘ziga xoslik va jahon standarti [Corporate Governance Code: Uniqueness and a global standard]. *Business Daily*, (4), 2.
- Mirziyoyev, Sh.M. (2017). *Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz [We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new stage]*. O‘zbekiston. prezident.uz (2018, December 28). *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis]*. Official Website of the President of the Republic of Uzbekistan. <https://president.uz/oz/lists/view/2228>
- Myfin.by. (n.d.). *Investor*. <https://myfin.by/wiki/term/investor>
- Nodirkhonov, U. S. (2013). *Metodologicheskie aspekty privilecheniya pryamykh inostrannykh investitsiy v Respublike Uzbekistan [Methodological aspects of attracting foreign direct investment in the Republic of Uzbekistan]*. In *Metodologicheskie voprosy razrabotki strategiy dolgosrochnogo razvitiya: Materialy V Forumu ekonomistov [Methodological issues in developing a long-term development strategy: Proceedings of the Forum of Economists]* (p. 27). IFMR.
- Nugent, J. B., & Pashamova, B. (1998). Host country reforms and foreign direct investment inflows: How much difference do they make? *World Development*, 26(7), 1299–1314.
- President of the Republic Kazakhstan. (2014, April 9). *Decree “On the establishment of the Council of National Investors under the President of the Republic of Kazakhstan” (No. 791)*. Zakon.kz Legal Information System. https://online.zakon.kz/m/document/?doc_id=31535822
- President of the Republic Uzbekistan. (2018, November 24). *Decree “On additional measures to improve mechanisms for financing projects in the field of entrepreneurship and innovation” (No. DP-5583)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4076948>
- President of the Republic Uzbekistan. (2022, January 28). *Decree “On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022 — 2026” (No. DP-60)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/5841063>
- President of the Republic Uzbekistan. (2026, February 16). *Decree “On additional measures to consistently continue reforms and bring them to a new stage within the framework of priority directions of the country’s development until 2030” (No. DP-21)*. Lex.uz. <https://lex.uz/ru/docs/-8050769?ONDATE=17.02.2026%2000>
- Republic of the Republic Uzbekistan. (2001, December 7). *Law “On production sharing agreements” (No. 312-II)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-20641>
- Republic of the Republic Uzbekistan. (2015, August 25). *Law “On investment and mutual funds” (No. LRU-392)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-2731863>
- Republic of the Republic Uzbekistan. (2019a, December 25). *Law “On investments and investment activity” (No. LRU-598)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4664142>
- Republic of the Republic Uzbekistan. (2019b). *Law “On public-private partnership” (No. LRU-537)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4329270>
- Republic of the Republic Uzbekistan. (2020, February 17). *Law “On special economic zones” (No. LRU-604)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4737511>

Tortian, A. (2007). *International investment agreements and their impact on foreign direct investment: Evidence from four emerging Central European countries* (Doctoral dissertation). Panthéon-Sorbonne University.

Xamraxo'jayev, N. (2016). *Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va xorijiy tajriba [The economic importance of introducing corporate governance in joint-stock companies and foreign experience]. In Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni huquqiy tartibga solish: Milliy va xorijiy tajriba [Legal regulation of corporate governance in joint-stock companies: National and foreign experience]* (pp. 41–45). Tashkent State University of Law.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.